



THE ART OF DEPICTING HISTORICAL EVENTS IN THE WORK OF RUSSIAN ARTISTS

Turayev Ilhomjon Rahim ugli

Karshi State University,

Teacher of the Department of Design and Painting

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17978095>

ARTICLE INFO

Received: 12th December 2025

Accepted: 17th December 2025

Online: 18th December 2025

KEYWORDS

Painting, historical genre, composition, 3D museum, virtual excursion, art education, didactic tool, innovation technology, digital cultural heritage.

ABSTRACT

This article comprehensively analyzes the invaluable contribution of prominent representatives of Russian realist painting, such as I.Y. Repin, Karl Bryullov, V.I. Surikov, and other famous artists, to the development of the historical genre. The process of the formation of the historical genre in Russian art of the 19th century, its connection with socio-cultural factors, and the artistic and stylistic approaches used by the painters of that period are elucidated. Specifically, the role of compositional structure, chiaroscuro solutions, the depiction of dramatic situations, the expressive capabilities of color and texture, as well as the techniques of psychological portraiture in the interpretation of historical events, are examined on a scientific basis.

Furthermore, following the analysis of the artists' works, effective methods for applying art samples in the educational process are covered, aiming to shape the students' artistic-aesthetic worldview, thinking, and creative approach. Methodological recommendations are provided, focused on developing skills for the artistic interpretation of historical events, enhancing independent analysis, and creative thinking. The educational, spiritual, and cultural significance of using historical painting examples in the learning process is also highlighted as a factor that expands the students' scope of thinking.

ИСКУССТВО ИЗОБРАЖЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ СОБЫТИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ РУССКИХ ХУДОЖНИКОВ

Тураев Ильхомджон Рахим оглу

Каршский государственный университет,

Преподаватель кафедры дизайна и изобразительных искусств.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17978095>



ARTICLE INFO

Received: 12th December 2025

Accepted: 17th December 2025

Online: 18th December 2025

KEYWORDS

Живопись, исторический жанр, композиция, 3D-музей, виртуальная экскурсия, художественное образование, дидактическое средство, инновационная технология, цифровое культурное наследие.

ABSTRACT

В данной статье всесторонне анализируется неоценимый вклад выдающихся представителей русского реалистического искусства, таких как И.Е. Репин, Карл Брюллов, В.И. Суриков и других известных художников, в развитие исторического жанра. Рассматривается процесс становления исторического жанра в русском искусстве XIX века, его связь с социально-культурными факторами, а также художественно-стилистические подходы, применяемые живописцами того периода. В частности, на научной основе исследуется роль построения композиции, светотеневых решений, передачи драматических ситуаций, выразительных возможностей цвета и фактуры, а также техник психологического портретирования в интерпретации исторических событий.

Помимо анализа творчества художников, в статье также освещаются эффективные методы использования образцов искусства в образовательном процессе для формирования у студентов художественно-эстетического мировоззрения, мышления и творческого подхода. Предлагаются методические рекомендации, направленные на развитие навыков художественной интерпретации исторических событий, усиление самостоятельного анализа и творческого мышления. Отмечается воспитательное, духовное и культурное значение использования образцов исторической живописи в учебном процессе как фактора, расширяющего кругозор студентов.

**RUS RASSOMLARI IJODIDA TARIXIY VOQEALARNINI TASVIRLASH
SAN'ATI**

To'rayev Ilhomjon Rahim o'g'li

Qarshi DU, Dizayn va rangtasvir san'at kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17978095>

ARTICLE INFO

Received: 12th December 2025

Accepted: 17th December 2025

Online: 18th December 2025

ABSTRACT

Ushbu maqolada rus realist rangtasvir san'ati namoyandalari I.Y.Repin, Karl Bryullov, V.I.Surikov



KEYWORDS

Rangtasvir, tarixiy janr, kompozitsiya, 3D muzey, virtual ekskursiya, san'at ta'limi, didaktik vosita, innovatsion texnologiya, raqamli madaniy meros.

va boshqa mashhur rassomlarning tarixiy janr rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi atroflicha tahlil etiladi. XIX asr rus san'atida tarixiy janrning shakllanish jarayoni, uning ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi hamda mazkur davr rassomlari tomonidan qo'llangan badiiy-uslubiy yondashuvlar yoritiladi. Xususan, kompozitsiya qurilishi, yorug'lik-soya yechimlari, dramatik holatlarni berish, rang va fakturaning ifodaviy imkoniyatlari, shuningdek, psixologik portretlashtirish texnikalarining tarixiy voqealarni talqin etishdagi o'rni ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, rassomlarining ijodi tahlil qilingan holda ta'lim jarayonida talabalarda badiiy-estetik dunyoqarash, tafakkur va ijodiy yondashuvni shakllantirish, san'at namunalarini o'quv jarayonida qo'llashning samarali usullari yoritilib, tarixiy voqealarni badiiy talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil tahlil va ijodiy fikrlashni kuchaytirishga qaratilgan metodik tavsiyalar beriladi. Ta'lim jarayonida tarixiy rangtasvir namunalaridan foydalanishning tarbiyaviy, ma'naviy va madaniy ahamiyati ham talabalarning fikrlash doirasini kengaytiruvchi omil sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Tarixiy janr rus rangtasvirining rivojlanishida markaziy o'rinni egallab, nafaqat estetik qadriyatga, balki chuqur ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ham ega bo'lgan. XIX asr rus san'atida bu janr o'zining yuksak cho'qqisiga erishdi, bunda rassomlar milliy o'zlikni anglash, Vatan tarixi va qahramonlik ruhini tasvirlashga intildilar. Ushbu maqolada I.Y.Repin, Karl Bryullov, V.I.Surikov kabi buyuk rus realist rassomlarining tarixiy janr rivojiga qo'shgan hissasi atroflicha tahlil etiladi, shuningdek, ularning asarlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanishning metodik tavsiyalari yoritiladi.

XIX asr Rus san'atida tarixiy janrning shakllanishiga rus jamiyatidagi ma'rifatparvarlik g'oyalari va milliy o'zlikni anglashning o'sishi kuchli turtki bo'ldi. Dastlab akademiya an'analari ta'sirida bo'lgan bu janr, asrning ikkinchi yarmida realizm tamoyillari bilan boyitilib, yangi bosqichga ko'tarildi.

Akademizmning dastlabki bosqichida ijod qilgan rassomlardan biri Karl Bryullovning "Pompeyning so'nggi kuni" asari klassitsizm va romantizmning sintezini o'zida mujassam etadi. Ulkan kompozitsiya, yorqin dramatism va ideal qahramonlar tasviri bu bosqichning xarakterli xususiyatlari edi. Bryullov asarlarida tarixiy voqealar katta sahna dramasi kabi tasvirlanar edi.

Realizm bosqichida esa V.I. Surikov va I.Y. Repin kabi rassomlar ijodida tarixiy janr chuqur psixologik tahlil va hissiy ta'sirchanlikka ega bo'ldi. Ular tarixiy shaxslarni jonli



insoniy obrazlar sifatida aks ettirib, voqealarning xalq taqdiriga ta'sirini ko'rsatishga harakat qilishdi. V.I.Surikovning "Boyar xotin Morozova" asari yoki I.Y.Repinning "Volgadagi burlaklar", "Zaporojyeliklar turk sultoniga maktub yozishmoqda," "Kutmagan edilar" kabi mashhur polotnolari ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarni, shaxslarning ichki kurashini mahorat bilan ochib berish bilan birga, o'zining chuqur psixologizmi, hayotiyligi va hissiy kuchi bilan ajralib turadi, xalq hayoti va tarixiy voqealarni aks ettirgan. Repin esa iste'dodli o'quvchilarning butun bir to'dasini tarbiyalagan taniqli pedagog edi.

Rus rassomlari tarixiy voqealarni tasvirlashda bir qator noyob badiiy-uslubiy usullarni qo'llaganlar. Rassomlar ko'pincha voqeaning eng keskin, dramatik nuqtasini tanlashgan. V.I.Surikovning kompozitsiyalari ko'p figurali bo'lib, tomoshabinni voqea markaziga tortadigan dinamik joylashuvga ega. Ular umumiy manzarani aniq ko'rsatish bilan birga, har bir personajning individual reaksiyasiga ham e'tibor qaratganlar. Yorug'lik va soya kontrastlaridan foydalanish voqea dramtizmini kuchaytirishga xizmat qilgan. Bryullovning "Pompeyning so'nggi kuni" asaridagi apokaliptik yorug'lik yoki Surikovning "O'qchilar qatl etilgan tong"dagi sovuq, og'ir tong nuri kabi yechimlar voqeaning hissiy ohangini oshiradi. Rang va fakturaning ifodaviy imkoniyatlari nafaqat muhitni yaratish, balki hissiy holatni yetkazish uchun ham ishlatilgan. Surikovning asarlarida boy, to'yingan ranglar gammasi davr liboslari va me'morchiligining o'ziga xosligini aks ettirgan, Repinning asarlarida esa ranglar ko'pincha psixologik keskinlikni ifodalashga xizmat qilgan.

Realist rassomlar uchun tarixiy shaxslarning ichki dunyosini ochib berish ustuvor vazifa bo'lgan. Ular yuz ifodasi, imo-ishoralar va tana holatlari orqali personajlarning xarakteri, hissiy kechinmalari va voqeaga munosabatini aniq ifodalaganlar. I.Y.Repin bu borada yuksak mahoratga erishib, uning asarlaridagi qahramonlar chuqur psixologik ishonchlilik bilan ajralib turadi.

Vasiliy Ivanovich Surikov (1848–1916) ijodi tarixiy rangtasvirning epik yo'nalishini rivojlantirdi. Uning asarlari rus tarixining burilish nuqtalari va xalqning ulkan ruhiy kuchini aks ettiradi.

"Rassom o'tmish tarixni e'zozlab, shu tarix saboqlarida zamonaviy masalalarni ko'rishga harakat qildi. Asarlarining koloriti ham tiniq ranglar hisobiga ochilgan, rang surtmalari ritmi asar g'oyasini yanada chuqurlashtiradi. «O'qchilar qatl etilgan tong», «Menshikov Beryozovoda», «Boyar xotin Morozova», «Qor shaharchaning bosib olinishi», «Sibirning Yermak Timofeevich tomonidan zabt etilishi», «Suvorovning Alp tog'laridan o'tishi» asarlari shuningdek, «Avtoportret», «Sibir go'zali E.A.Rachkovskaya», «Stepan Razin» kabi portretlar, akvarelda esa bir qator manzaralar yaratgan. O'zbekiston san'at muzeyida Surikovning 1879 yilda yaratilgan «Qatlgga olib ketilayotgan o'qchining qaylig'i» asari saqlanadi. Vasiliy Surikovning "O'qchilar qatl etilgan tong", "Boyar xotin Morozova", "Menshikov Berezovda", «Qor shaharchaning bosib olinishi» kabi asarlari munosib e'tiraf etildi va o'sha davrning taniqli rassomlari orasidan joy berdi.”¹

¹ Sattarova A.A, To'rayev I.R "TARIXIY JANRDA RANGLARNING O'RNI VA AHAMIYATI" So'z san'ati xalqaro jurnali 1 maxsus son 201-202 betlar



"O'qchilar qatl etilgan tong" (1881) asarida Rassom Pyotr I davridagi chuqur ijtimoiy qarama-qarshilikni ko'rsatgan. Og'ir, zardoblangan ranglar va qatlni kutayotganlarning yuzidagi azob va iroda ifodalari asarning dramatik kuchini belgilaydi.

"Boyar xotin Morozova" (1887) kartinasida eski e'tiqod tarafdorlarining ruhiy qarshiligi aks ettirilgan. Morozovaning o'ziga xos, jasoratli obrazi va uning atrofidagi xalqning turli munosabatlari dinamik, hissiyotlarga boy kompozitsiyani yaratadi.

Ilya Yefimovich Repin (1844–1930) o'z asarlarida realizm va psixologizmni yuksak darajada uyg'unlashtirgan. Uning tarixiy asarlari ko'pincha ijtimoiy tanqid ruhi bilan sug'orilgan.

"Ivan Grozniy va uning o'g'li Ivan" kartinasida Rassom ota va uning o'g'li Ivanning taqdirini og'ir psixologik drama tarzida tasvirlagan. Podsho va o'g'il o'rtasidagi ziddiyat Repin tomonidan yuz ifodalari va imo-ishoralar orqali nihoyatda aniq berilgan. Bu asar rus san'atida eng bahsli va eng dramatik tasvirlardan biri sifatida yuksak baholanadi. Kartinada tasvirlangan fojiviy lahza — tarixiy manbalarda keltirilganidek, Ivan Grozniyning o'z o'g'lini jahldan o'ldirgan degan rivoyatga asoslanadi. Mazkur syujet rassomga insoniy his-tuyg'ularning eng chuqur, eng keskin holatini — pushaymonlik, qo'rquv, iztirob va fojiani bir lahzada ifodalash imkonini bergan. Maqolaning asosiy maqsadi — Repin asaridagi badiiy vositalar, psixologik dramatism va kompozitsion yechimlarni tahlil qilishdir.



I.Repin "Ivan Grozniy va uning o'g'li Ivan" 1883–1885. Mato, moybo'yoq. O'lchamlari 199,5 sm × 254 sm Tretyakov galereyasi, Moskva

"Zaporojyelar turk sultoniga xat yozmoqda" (1880–1891) asari rus xalqining erkinlikni sevuvchi ruhini, jasoratini va hazilkashligini ko'rsatadi. Har bir zaporojetsning xarakteri alohida-alohida ishonarli darajada ishlab chiqilgan bo'lib, kartina hayot quvonchi va isyonkorlik ruhini aks ettiradi.



"Zaporozhyer turk sultoniga xat yozmoqda" (1880-1891)

Tarixiy janr namunalaridan ta'lim jarayonida foydalanish talabalarda nafaqat badiiy-estetik dunyoqarashni, balki tarixiy tafakkur va ijodiy yondashuvni ham shakllantiradi. Talabalarga asarning markaziy va ikkinchi darajali qahramonlar joylashuvi, ritmik tuzilishi, chiziqlar va shakllarning dinamikasini tahlil qilish vazifasini berish orqali ularning ijodiy qobiliyati rivojlantiriladi. Masalan, Surikov asarlarida ommaviy sahnalarning yaratilish sirlarini o'rganish, talabaning ijodiy malakasini oshiradi

Rassomning ranglar gammasi (issiq/sovuq) va yorug'lik manbalari (tabiiy/sun'iy, ramziy) voqeaning hissiy va ramziy ma'nosini qanday oshirib berishini o'rganish, Bryullovning asarlaridagi yorug'likning ramziy ahamiyatini tushuntirish orqali talabalarga tanlangan tarixiy voqeani turli davr rassomlari (masalan, Repin, Bryullov) qanday tasvirlashini taqqoslashni taklif qilish, bu san'atkorning shaxsiy pozitsiyasi va davrining g'oyalari tarixiy talqinni qanday o'zgartirishini ko'rsatadi.

Talabalarga asardagi bosh yoki ikkinchi darajali qahramonlarning yuz ifodasi, kiyim-kechagi, imo-ishorasi asosida ularning ichki holati va motivatsiyasini yozma ravishda tahlil qilishi orqali Repinning portret mahoratidan foydalanib, asardagi personajlarning his-tuyg'ulariga e'tibor qaratiladi.

Tarixiy rangtasvir namunalari ta'lim jarayonida muhim tarbiyaviy, ma'naviy va madaniy ahamiyatga ega. Rassomlarning Vatan tarixi va qahramonlarini ulug'lashi talabalarda milliy g'urur va tarixiy xotiraga hurmat tuyg'ularini shakllantiradi. Surikovning epik asarlari aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Tarixiy asarlar ko'pincha qahramonlik, fidoyilik, e'tiqod uchun kurash kabi umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. "Boyar xotin Morozova"dagi e'tiqodga sodiqlik yoki "O'qchilar qatl etilgan tong"dagi majburiyat va taqdir dramasi haqida munozara yuritish talabalarning axloqiy dunyoqarashini kengaytiradi. Tarixiy janr asarlari o'tmishdagi turmush tarzi, kiyinish madaniyati, me'morchilik va ijtimoiy munosabatlar haqida aniq tasavvur beradi, bu esa talabalarning madaniy savodxonligini oshiradi. Shuningdek, bugungi kunda 3D-muzeylar va virtual galereyalar an'anaviy o'quv jarayonini to'ldiruvchi interaktiv didaktik vositalar yordamida talabalar yuqorida tilga olingan rassomlarning san'at asarlarini realistlik fazoda ko'rish, kompozitsiyani tahlil qilish, muallif uslubini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.



Rus realist rangtasvir san'ati namoyandalari I.Y.Repin, Karl Bryullov, V.I.Surikov va boshqalarning tarixiy janrdagi ijodi nafaqat rus, balki jahon san'ati xazinasining bebaho qismidir. Ular o'z asarlarida tarixiy voqealarni chuqur psixologik tahlil, yuksak dramatik kuch va badiiy mahorat bilan tasvirlab, tomoshabinda kuchli hissiy taassurot qoldirdilar. Ushbu asarlarni ta'lim jarayonida badiiy-uslubiy, psixologik va tarixiy-madaniy tahlil asosida qo'llash talabalarda badiiy-estetik tafakkur, ijodiy yondashuv va milliy tarixdan g'ururlanish tuyg'usini rivojlantirishning samarali metodik yo'li hisoblanadi.

References:

1. Абдуллаев Н. Санъат тарихи.1-тсм. Тшкент- 1987.
2. Бойко Н.П. Истории знаменитых полстен: очерки с русской живописию, Пермь; 2012г, 255 с.
3. Картунова.Н.Д. Как читать и понимать искусство: интенсивный курс - Москва: Издательствс АСТ, 2018. - 192 с.
4. Kultasheva.N.D. Umumsan'at tarixi: o'quv qo'llanma. Toshkent: «Noshir» nashriyoti, 2019. - 184 b.
5. Орлова Е. ВЕЛИКИЕ РУССКИЕ ЖИВОПИСЦЫ Василий Иванович СУРИКОВ Москву 2014.
6. Пантелеева.И.А, Миркес.М.М, Тарасова.М.В. и др "Всеобщая история искусства" Красноярск, 2008.
7. Хсдж.А.Н. История искусства: Живопись от Джотто до таших дней / Пер. с англ.О.В.Сергеевой. - М.: Кучксвс поле, 2017. - 208 с.
8. Ибрагимов Р.К. УКУВ АНИМАЦИЯСИ ВА УНДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ УСУЛЛАРИ //Интеробразование и глсбальные исследвания. - 2024. - №. 4 (1). - С. 241-245.